ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43, Termez city.
Phone: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ШАКЕНОВА МАЙГУЛЬ ТУЛЕГЕНОВНА
Прецедентные имена как маркеры культурной памяти в современных медиа Казахстана 7

КОДИРОВА МУКАДДАС ТОГАЕВНА
Синергетическая трансформация узбекского и английского бизнес-дискурса 11

BAYNAZAROV ZOKIR
«Chig'atoy gurungi» va uning o'zbek tilshunosligi tarixidagi o'rni 16

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Disleksiya neyrolingvistik muammo sifatida 22

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA
«Devoni lug'ati-t-turk» asaridagi jangnoma she'rlar va ularning semantikasi 28

RAHIMOV USMONJON ERGASHEVICH
Pragmalingvistika va unga bog'liq hodisalarni antroposentrik nazariya asosida tadqiq etish 33

ABDULLAJONOVA MADINA TO'LANBOY QIZI
Disgrafiyaga xos xatolarning yoshga bog'liq dinamikasi 39

КАЛДЫГОЗОВА С.Е.
Термины-эпонимы в психологических блог-дискурсах 46

ASADOV ALISHER BAHODIROVICH
Preventiv nutqiy aktlarning lingvopragmatik va sotsiopragmatik jihatlari 39

ERIMMATOVA ZUXRA AZIMBOYEVNA
Qo'lyozmalarda kotiblarning (nusxa ko'chiruvchilarning) eng muhim amallari 54

ELOVA DILRABO QUDRATILLAYEVNA
Normativ matn talqinida sintaktik qamrovning o'rni 60

NORMO'MINOV SHERZOD TO'YCHIYEVICH
O'zbek shevalarida leksik tanlovning yosh omili: avlodlararo qatlamlanish 65

SAMINOV ABDUMALIK INOMJONOVICH
Oksyumoronning sintaktik-stilistik va lingvopoetik xususiyatlari (Shavkat Rahmon she'riyati misolida) 68

FAYZIYEVA AZIZA ANVAROVNA
Axloqiy-hissiy konseptlar: sof hissiy va sof axloqiy konseptlardan farqlanish mezonlari 72

ABDULLAYEV DAVRONBEK DILMUROD O'G'LI
«Maoniy an-nahv» kitobida «na'ti maqtu'» (uzilgan sifat) hodisasi 76

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Ona tili boyligi – madaniy nutqni shakllantiruvchi vosita 79

ИСЛОМОВА ДИЛНОЗА УЙГУН КИЗИ
Понятие и функции социальной рекламы в обществе 82

ASATULLOYEVA MUHAYYO ALISHER QIZI
Til birliklarining pragmalingvistik xususiyatlari: informema va pragmema oppozitsiyasida frazeologik birliklarning o'rni 86

МУНДАРИЖА

MURODULLAYEVA SARVINOZ YORQIN QIZI
Xudoyberdi To'xtaboyev hikoyalarida milliy-madaniy birliklar tarjimasi:
milliy koloritni saqlash strategiyalari 90

O'ROQOVA MUBORAK
Sud-tibbiy ekspertiza matnlarining diskursiv xususiyatlari 94

TURSINBAYEVA SHAXLOXON ALIMBAYEVNA
Badiiy matnda sharqona muloqot etiketi va nutqiy strategiyalar 94

XALIQULOVA MUSHARRAF EGAMNAZAR QIZI
Ijtimoiy reklama diskursida til, ma'no va madaniyat munosabati 102

ABDUMUMINOVA DILNOZA XOMIT QIZI
Ingliz tilida holat fe'llarining metaforik kengayishi 105

TURAEVA ORASTA
Ways of expressing irony in the heroic dramas of John Dryden 109

ADABIYOTSHUNOSLIK

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA,
SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O'G'LI
«Devonu lug'ati-t-turk» asaridagi she'riy uzindilar badiiyati 116

RAIMOVA SAYYORA ZAITOVNA
Intertekstual birliklarning poetik vazifasi 123

TASHPULATOV MUXRIDDIN RAXMATULLA O'G'LI
Jadid dramaturgiyasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari 127

FAYZULLAYEVA NIGINA SUR'AT QIZI
Badiiy tafakkurda jinoyat va psixologiya o'zaro aloqadorligining estetik talqini 132

БУРАНОВА ЖАМИЛА АЛИЕВНА
Влияние мифологических мотивов создания и разрушения на сюжет романа 135

МУҲАММАД АБДУЛЛАЕВ
Убайдий ижодида салафлари ижоди таъсири 139

RAMAZON ABDULLAEV
Muizziy qasidalarda lirik mazmun va badiiy mahorat 142

TA'LIM

XALILOVA MUYASSARXON TOLIPOVNA
Bog'lanishli matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi zamonaviy metodlar 145

отношения, культуру гостеприимства, а также традиционные предметы быта. В статье обосновывается, что при переводе рассказов Худойберди Тухтабаева особую значимость приобретает соблюдение баланса между обеспечением понятности текста для иноязычного читателя и сохранением национального колорита оригинала.

Resume. This article analyzes the major problems of translating national-cultural units on the basis of the English translations of stories from Khudoyberdi Tukhtabayev's story collection «Qaylardasan, bolaligim». The study focuses on the ways in which culturally marked units reflecting the lifestyle of the Uzbek people, kinship relations, the culture of hospitality, and traditional household items are rendered in English translation. The article argues that, in translating Khudoyberdi Tukhtabayev's stories, it is essential to maintain a balance between ensuring the comprehensibility of the text for the target reader and preserving the national colouring of the original.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SUD-TIBBIY EKSPERTIZA MATNLARINING DISKURSIV XUSUSIYATLARI

O'roqova Muborak,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
ingliz tili amaliy aspektlari kafedrasi o'qituvchisi

Zamonaviy lingvistika matnni endilikda faqat statik, struktur birlik sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy-madaniy sharoitda yuzaga keladigan va ma'lum bir kommunikativ maqsadga yo'naltirilgan murakkab diskursiv faoliyat sifatida talqin etmoqda. Shu jihatdan qaralganda, sud-tibbiy ekspertiza matnlari o'zining ko'p qatlamli, funksional tabiati bilan alohida ilmiy qiziqish uyg'otmoqda. Diskursiv tahlil metodologiyasi tilning ijtimoiy, madaniy va huquqiy kontekstdagi ishlashini o'rganishda muhim vosita sifatida katta ahamiyatga ega[1]. Sud-tibbiy ekspertiza matnlari tibbiy faktlarning aniqligi, huquqiy talablarning qat'iyligi hamda rasmiy kommunikatsiya normalarining me'yoriyligi uyg'unlashgan holda, o'ziga xos va murakkab diskurs turini shakllantiradi. Shu bilan birga, amaliy materiallar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur matnlar bir vaqtning o'zida bir nechta kommunikativ vazifani bajaradi va aynan shu jihat ularning diskursiv murakkabligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Sud-tibbiy ekspertiza xulosasi o'zida bir necha murakkab funksiyani mujassamlashtiradi: u ham ilmiy hujjat, ham huquqiy dalil, ham institutsional kommunikatsiya vositasi, ham jamiyat uchun mas'uliyatli axborot manbaidir. Shu sabab bu matn turining lingvistik tuzilishi, kommunikativ strategiyalari va pragmatik xususiyatlarini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham o'ta muhimdir.

Matnlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sud-tibbiy ekspertiza xulosalari nafaqat sof huquqiy, balki sof tibbiy diskurs doirasiga ham to'liq sig'maydi; aksincha, ular har ikki sohaning muhim belgilarini o'zida mujassam etgan gibrid matn turini tashkil etadi. Bunday sintez natijasida mazkur matnlar bir vaqtning o'zida ham ilmiy aniqlikni, ham huquqiy asoslanganlikni ta'minlovchi murakkab kommunikativ birlik sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu hodisa Mixail Baxtin tomonidan ilgari surilgan «heteroglossia» tushunchasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, unda turli nutq uslublari va ijtimoiy tillarning bir matn doirasida uyg'unlashuvi

[1] Teun A. van Dijk T. A. (1997). Discourse as Social Interaction. London: Sage Publications, pp. 1-37.

ta'kidlanadi[1]. Shuningdek, bu holat zamonaviy diskursologiyada keng qo'llanilayotgan «janriy gibridlik» (generic hybridity) konsepsiyasi bilan hamohang bo'lib, u Vijay K. Bhatia tomonidan turli diskurs va janr xususiyatlarining o'zaro qo'shilishi sifatida izohlanadi[2]. Bizning tahlilimizga ko'ra, sud-tibbiy ekspertiza matnlarida ushbu gibridlik nafaqat terminologik darajada, balki sintaktik va pragmatik darajalarda ham yaqqol namoyon bo'ladi, bu esa ularni oddiy institutsional matnlardan ajratib turadi.

Sud-tibbiy ekspertiza matnlar qat'iy reglamentlangan kompozitsion tuzilma, rasmiy uslubiy me'yorlarga bo'ysunish hamda maksimal darajadagi obyektivlikka intilish bilan tavsiflanadi. Institutsional diskurs nazariyasiga ko'ra, «har qanday rasmiy kommunikatsiya shakli ijtimoiy rollar va statuslar bilan belgilangan bo'lib, unda nutq subyektlari erkin emas, balki tizim talablariga muvofiq harakat qiladi»[3]. Shu ma'noda, sud-tibbiy ekspertiza matnlarida muallif – ekspert va adresat – sud yoki tergov organlari o'rtasidagi kommunikativ munosabatlar ierarxik xarakter kasb etadi hamda qat'iy funksional yo'naltirilganlik bilan belgilanadi.

Bundan tashqari, ushbu turdagi matnlar individuallikdan xoli bo'lib, muallifning shaxsiy pozitsiyasini emas, balki institutsional nuqtayi nazarni ifodalaydi. Bu holat Norman Ferklou tomonidan ta'kidlanganidek, «institutsional diskurslarda nutq subyekti ko'proq muayyan tizimning vakili sifatida namoyon bo'ladi va uning nutqi shu tizimning ideologik hamda funksional talablarini aks ettiradi»[4]. Natijada sud-tibbiy ekspertiza matni nafaqat axborot beruvchi hujjat, balki ijtimoiy-huquqiy tartibni ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim kommunikativ vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ekspertning shaxsiy pozitsiyasi maksimal darajada neytrallashtirilishi ushbu matn turining asosiy diskursiv talablardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Sud-tibbiy ekspertiza matnlarining leksik-semantik qatlami yuqori darajada terminologiyalashganligi bilan ajralib turadi. Unda, avvalo, tibbiy terminologiya (anatomik nomlar, fiziologik va patologik holatlarni ifodalovchi birliklar) hamda huquqiy terminlar (jarohat darajasi, sababiy bog'liqlik, javobgarlik mezonlari va boshqalar) o'zaro uyg'unlashgan holda qo'llanadi. Bunday terminologik sintez matnning aniqligi va ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ilmiy diskurs xususiyatlariga ko'ra, «terminlar tizimi bilimni aniq va bir ma'noli ifodalashning asosiy vositasi hisoblanadi»[5], shu sababli sud-tibbiy matnlarda leksik tanlov maksimal darajada standartlashtirilgan bo'ladi.

Masalan, ekspertiza xulosalarida quyidagi kabi aniq va standartlashgan ifodalar uchraydi: «jabrlanuvchining chap yelka sohasida 3 sm uzunlikdagi kesilgan yara aniqlangan», «jarohat o'rtacha og'irlik darajasiga mansub deb baholandi», «o'lim sababi – bosh miya yopiq shikastlanishi natijasida yuzaga kelgan intrakranial qon ketish». Bu misollarda har bir termin (masalan, «kesilgan yara», «o'rtacha og'irlik darajasi», «intrakranial qon ketish») aniq tibbiy-huquqiy tushunchani bildiradi va ularning o'rnini erkin sinonimlar bilan almashtirish mumkin emas. Tahlil jarayonida aniqlanishicha, aynan terminlarning bunday qat'iyligi ekspert xulosalarining noto'g'ri talqin qilinish ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi.

Mazkur matnlarda sinonimik variantlar deyarli qo'llanilmaydi, chunki har bir termin qat'iy semantik chegaraga ega. Masalan, oddiy nutqda «urilgan», «zarba yegan», «lat yegan» kabi variantlar ishlatilishi mumkin bo'lsa, ekspert matnida faqat «to'qimalarning lat yeyishi (kontuziya)» kabi aniq termin qo'llanadi. Xuddi shuningdek, ko'p ma'nolilik (polisemiya) imkon qadar cheklanadi: kundalik tildagi «og'ir» so'zi turli ma'nolarda ishlatilsa, ekspertizada u faqat «og'ir tan jarohati» kabi huquqiy mezon bilan bog'langan holda qo'llanadi.

Shu bilan birga, neytral va bahosiz leksikaning ustunligi kuzatiladi. Masalan, «jabrlanuvchi ayanchli holatda edi» kabi subyektiv baholovchi ifodalar o'rniga «jabrlanuvchining umumiy holati *og'ir deb baholandi*» kabi obyektiv formulalar ishlatiladi. Bu jihat Roman Jakobson ta'kidlagan referensial funksiyaning ustuvorligi bilan izohlanadi, ya'ni til birliklari, avvalo, voqelikni aniq va xolis aks ettirishga xizmat qiladi[6]. Bu holat ilmiy va rasmiy diskursga xos bo'lib, «nutqning asosiy maqsadi – haqiqatga mos va tekshiriladigan axborotni yetkazishdir»[7], degan pragmatik tamoyil bilan uyg'unlashadi.

Natijada sud-tibbiy ekspertiza matni yuqori darajadagi aniqlik, terminologik izchillik va semantik birma'nolilikka asoslangan maxsus leksik tizimni namoyon etadi; bu esa uning huquqiy va ilmiy ishonchliligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Sud-tibbiy ekspertiza matnlari sintaktik jihatdan

[1] Mikhail Bakhtin M. M. (1981). The Dialogic Imagination: Four Essays. Austin: University of Texas Press, pp. 259-422.
[2] Vijay K. Bhatia V. K. (2004). Worlds of Written Discourse: A Genre-Based View. London: Continuum, pp. 57-78.
[3] Teun A. van Dijk T. A. (1997). Discourse as Social Interaction. London: Sage Publications, pp. 1-37.
[4] Herbert Paul Grice H. P. (1975). Logic and Conversation. In: Cole, P., Morgan, J. (eds.), Syntax and Semantics, Vol. 3. New York: Academic Press, pp. 41-58.
[5] Ruth Wodak R. (2009). The Discourse of Politics in Action: Politics as Usual. London: Palgrave Macmillan, pp. 19-42.
[6] Teun A. van Dijk T. A. (1997). Discourse as Social Interaction. London: Sage Publications, pp. 1-37.
[7] Roman Jakobson R. (1960). Linguistics and Poetics. In: Sebeok, T. A. (ed.), Style in Language. Cambridge, MA: MIT Press, pp. 350-377.

murakkabligi va qat'iy mantiqiy izchilligi bilan ajralib turadi. Ushbu matnlarda fikr ifodasi ko'pincha qo'shma gaplar orqali berilib, sabab-oqibat munosabatlarini aniq ko'rsatishga xizmat qiluvchi konstruktsiyalar keng qo'llanadi. Masalan: «Jabrlanuvchining bosh sohasiga yetkazilgan zarba natijasida bosh miya shikastlanishi yuzaga kelganligi sababli o'lim sodir *bo'lgan*» kabi gaplar voqea va uning oqibatini uzviy bog'liq holda ifodalaydi. Bu esa sabab-oqibat munosabatlarining maksimal darajada aniq ifodalanishini ta'minlaydi va xulosaning ishonchliligini kuchaytiradi. Bunday sintaktik qurilish ilmiy diskursga xos bo'lib, unda «mantiqiy aloqadorlik va izchillik matnning asosiy tashkil etuvchi tamoyillaridan biri hisoblanadi»[1].

Shuningdek, mazkur matnlarda passiv konstruktsiyalar ustunlik qiladi, bu esa bayonning obyektivligini ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan: «jarohat aniqlangan», «tekshiruv o'tkazildi», «xulosa berildi» kabi shakllar subyektni ikkinchi darajaga surib, e'tiborni natija va faktlarga qaratadi. Bu holat ilmiy va rasmiy uslubga xos xususiyat bo'lib, muallifning shaxsiy ishtirokini minimallashtiradi.

Bundan tashqari, sud-tibbiy ekspertiza matnlarida standartlashtirilgan iboralar va qoliplar (klishelar) faol qo'llanadi. Jumladan: «tekshiruv natijalariga ko'ra», «yuqoridagilardan kelib chiqib», «mazkur holatni inobatga olib», «xulosa qilinadi» kabi formulalar matnning rasmiyligini va yagona uslubiy standartga mosligini ta'minlaydi. Bu esa Vijay K. Bhatia ta'kidlagan janriy konvensiyalar bilan bog'liq bo'lib, har bir institutsional matn o'ziga xos qoliplarga tayangan holda shakllanadi.

Diskursiv nuqtayi nazardan qaralganda, sud-tibbiy ekspertiza matnlari interdiskursivlik xususiyatiga ega, ya'ni ular bir vaqtning o'zida tibbiy va huquqiy diskurs elementlarini o'zida mujassam etadi. Masalan, «yopiq bosh miya shikastlanishi» (tibbiy termin) va «og'ir tan jarohati sifatida baholanadi» (huquqiy baholash) kabi birliklarning bir matnda qo'llanishi ushbu uyg'unlikni yaqqol namoyon etadi. Bu jarayon Norman Ferklou ta'kidlagan interdiskursivlik tushunchasi bilan izohlanadi, unda turli diskurslarga xos elementlarning birlashuvi orqali yangi kommunikativ shakl yuzaga keladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, aynan ushbu interdiskursiv xususiyat sud-tibbiy ekspertiza matnlarini boshqa rasmiy hujjatlardan farqlovchi asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, bunday matnlar adresatga yo'naltirilganligi bilan ham ajralib turadi. Ya'ni ekspert xulosasi, avvalo, tibbiy mutaxassis bo'lmagan sud yoki tergov organlari uchun tushunarli bo'lishi zarur. Shu sababli murakkab tibbiy terminlar ko'pincha izohli yoki kontekst orqali anglashiladigan tarzda beriladi. Masalan: «intrakranial qon ketish (bosh miya ichida qon yig'ilishi)» kabi izohli konstruksiyalar qo'llanadi.

Bundan tashqari, ishonchlilik strategiyasi sud-tibbiy diskursning markaziy komponentlaridan biri hisoblanadi. Har bir xulosa dalillar, kuzatuvlar va ilmiy asoslangan mulohazalar bilan mustahkamlanadi: «tekshiruv natijalariga ko'ra aniqlanishicha...», «eksperimental va klinik ma'lumotlarga asoslanib...», «yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilinadi...» kabi formulalar aynan shu strategiyaning lingvistik ifodasidir. Natijada sud-tibbiy ekspertiza matnlari pragmatik aniqlik, diskursiv uyg'unlik va yuqori darajadagi ishonchlilikka yo'naltirilgan murakkab kommunikativ tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, sud-tibbiy ekspertiza matnlari murakkab va ko'p qatlamli diskursiv tizim sifatida tibbiy hamda huquqiy diskurslarning kesishgan nuqtasida shakllanadi. Ular o'zining institutsional xarakteri, yuqori darajadagi terminologik aniqligi, sintaktik jihatdan murakkab va izchil qurilishi hamda pragmatik obyektivlikka yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Mazkur xususiyatlar ushbu matnlarning nafaqat ilmiy, balki huquqiy jihatdan ham ishonchliligini ta'minlovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, sud-tibbiy ekspertiza matnlarini lingvistik nuqtayi nazardan o'rganish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu tadqiqotlar orqali ekspert xulosalarining aniqligi va tushunarliligi oshiriladi, terminologik izchillik ta'minlanadi hamda sud-huquq tizimidagi kommunikativ samaradorlik kuchaytiriladi. Natijada bunday yondashuv nafaqat lingvistika rivojiga, balki sud-amaliyotda adolatli va asosli qarorlar qabul qilinishiga ham xizmat qiladi. Demak, sud-tibbiy ekspertiza matnlarini faqat rasmiy hujjat sifatida emas, balki huquqiy haqiqatni lingvistik jihatdan shakllantiruvchi va bilimni strukturallashtiruvchi murakkab diskursiv mexanizm sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

Rezyume. Maqolada sud-tibbiy ekspertiza matnlarining diskursiv xususiyatlari, shuningdek, ularning tibbiy va huquqiy diskurs sohasidagi lingvistik xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, ushbu matnlarning institutsional, leksik-semantik, sintaktik va pragmatik jihatlari haqida ma'lumot berilib, ularning murakkab kommunikativ birlik sifatidagi gibrid diskursiv tuzilishi izohlangan.

[1] George Lakoff G., & Mark Johnson M. (1980). Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, pp. 3-32.

Resume. The article reveals the discursive features of forensic medical examination texts, as well as their linguistic characteristics in the field of medical and legal discourse. It also provides information on the institutional, lexical-semantic, syntactic, and pragmatic aspects of these texts and explains their hybrid discursive structure as complex communicative units.

Резюме. В статье раскрываются дискурсивные особенности текстов судебно-медицинской экспертизы, а также их лингвистические характеристики в сфере медицинского и юридического дискурса. Также представлена информация об институциональных, лексико-семантических, синтаксических и прагматических аспектах этих текстов и объясняется их гибридная дискурсивная структура как сложных коммуникативных единиц.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BADIIY MATNDA SHARQONA MULOQOT ETIKETI VA NUTQIY STRATEGIYALAR

Tursinbayeva Shaxloxon Alimbayevna,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Zamonaviy tilshunoslikda tilni faqatgina aloqa vositasi emas, balki millat madaniyati, ruhiyati va tarixini o'zida saqlovchi hamda avloddan-avlodga uzatuvchi jonli xazina sifatida o'rganish yetakchi o'ringa chiqdi. Bu borada lingvokulturologiya sohasi millatning dunyoqarashi tilda qanday aks etishini tadqiq etishda muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Milliy madaniyat va mentalitetning eng yorqin ko'rinishlaridan biri esa, shubhasiz, – muloqot xulqi va nutqiy etiketdir. Nutqiy etiket har bir xalqning o'ziga xos tarbiyasi, ijtimoiy kelib chiqishi va axloqiy me'yorlarini ifodalaydi. Tarixiy jarayonlarni, xususan, milliy davlatchiligimiz poydevori bo'lgan Amir Temur va temuriylar davri muhitini badiiy gavdalantirishda nutqiy etiket vositalarining o'rni beqiyosdir. Muhammad Alining «Ulug' saltanat»[1] epopeyasi nafaqat tarixiy voqelikni aniq tasvirlagani, balki o'sha davr o'zbekona muloqot xulqining eng nozik qirralarini lisoniy birliklar orqali mahorat bilan ko'rsatib bera olgani bilan ham ahamiyatlidir. Ushbu maqolada asardagi qahramonlar nutqini lingvokulturologik prizma orqali tahlil qilish, davr muloqot madaniyatining til qatlamlaridagi aksini aniqlash maqsad qilingan.

Nutqiy muloqot madaniyati, muloqot xulqi va nutqiy etiket masalalari zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik paradigmasi doirasida, xususan, lingvokulturologiya va pragmalingvistika sohalarining diqqat markazida turadi. Muloqot jarayonida shaxsning ijtimoiy-madaniy qiyofasi, milliy mentaliteti va jamiyatdagi mavqeyi uning nutqiy strategiyalarida namoyon bo'ladi.

Xalqaro miqyosda muloqot etiketining umumnazariy asoslari va xushmuomalalik tamoyillari g'arb tilshunoslari J.Lich (J.Leech) hamda P.Braun va S.Levinson (P.Brown, S.Levinson)[2] tadqiqotlarida keng yoritilgan. J.Lich[3] o'zining xushmuomalalik

[1] Muhammad Ali. Ulug' saltanat. – Toshkent: Sharq, 2013. – 450 b.
[2] Brown, P., Levinson, S. Politeness: Some universals in language usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.
[3] Leech, J. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983. – 250 p.